

“DEZINFEKSIYA TURLARI, USULLARI VA VOSITALARI”

Olmaliq Abu ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi

"Hamshiralik ishi" kafedrası o'qituvchisi

Mamatova Gulrux Yo'ldashboy qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada dezenfeksiya turlari usullari va vositalari, mikroblarning kelib chiqishi, infeksiyaning paydo bo'lishi, odam organizmida infeksiyaning kirishi va chiqib ketish jarayonlarida dezenfeksiya qilishning ahamiyati haqida qisqacha so'z yuritiladi.*

Kalit so'z: *spetsifiklig, patogen, mikroorganizm, biologic, parazitlik, virulently, infeksiya, antitelo, qorin tifi, shigellyoz, o'lat, salmonellyoz, brusellyoz, botulism.*

Abstract: *This article briefly discusses the methods and means of disinfection, the origin of microbes, the occurrence of infection, the importance of disinfection in the processes of entry and exit of infection in the human body.*

Key words: *specificity, pathogen, microorganism, biological, parasitic, virulent, infection, antibody, typhoid fever, shigellosis, plague, salmonellosis, brucellosis, botulism.*

Mikroblarning bir turi qo'zg'atgan kasallik oddiy infeksiya, ikki yoki bir necha turi qo'zg'atgan kasallik aralash infeksiya, yuqumli kasallik bilan og'rib o'tgan kishiga takror Infeksiya yuqishi reinfeksiya, mikroblarning muayyan turi zarar yetkazgan organizmga takror Infeksiya yuqishi superinfeksiya deb ataladi. Ba'zi mikroblar organizmida inaktiv holatda bo'ladi, ammo muayyan sharoitda (kishi o'ta charchaganda, sovuqotganda va b.) patogen xossalarni namoyon qila oladi (autoinfeksiya), shuning natijasida kasallik ro'y beradi. Infeksiyaning paydo bo'lishi va o'tishida patogen mikroorganizmlarning quyidagi xususiyatlari muhim rol o'ynaydi:

1) spetsifikligi, ya'ni muayyan biologik turning organizmida yashashi (masalan, qizamiq virusi faqat odam organizmida parazitlik qiladi) va faqat o'zi uchun harakterli infeksiyon kasallikni qo'zg'atishi;

2) virulentligi, ya'ni kasallikka nechog'li sabab bo'la olishi;

3) muayyan a'zolarida (aksari ichki a'zolarida) joylasha olishi (masalan, gonokokk siydik yo'llari bilan ko'z shilliq pardasida; stafilokokklar va streptokokklar jinsiy a'zolarida; meningokokk miya pardalarida, dizenteriya tayoqchalari yo'g'on ichak devorida yashab ko'payadi).

Infeksiyaning paydo bo'lishi va o'tishida makroorganizmning xususiyatlari va ijtimoiy sharoit muhim rol o'ynaydi. Odam organizmi mikroblar kirishiga befarq bo'la olmaydi. Odam va hayvonlar organizmi har xil fiziologik va immunologik mexanizmlari borligi tufayli ko'p mikroblarga tabiiy chidamli bo'ladi (teri va shilliq pardalar ko'p mikroblarni o'tkazmaydi, bezlardan ishlanib chiqadigan shilimshiq, me'da shirasi, o't, ko'z yoshi va shu kabi ba'zi bakteriyalarni, viruslarni o'ldiradi va hakozi). Odam va

hayvonlar organizmi kasallik mikroblarining kirishiga javoban immunitet reaksiyalarini rivojlantiradi (fagotsitlar mikrobgga nisbatan spetsifik aktivlashadi, antitelolar ishlana boshlaydi, allergiya vujudga keladi). Kasallik yuqqan kishi (bemor, ba'zan sog'lom odam) yoki hayvonlar Infeksiya manbai bo'ladi (masalan ich terlama bemor yoki bakteriya tashuvchi kishi, quturish kasalligida mikroblar yuqqan it va boshqa hayvonlar Infeksiya manbaidir).

Infeksiya turlari Infeksiyaga bakteriyalar, zamburuglar, visurlar, rikketsiyalar, mikoplazmalar, vibriionlar, parazitlar misol boladi. Havo infeksiyalari: suvchechak, qizamiq, endemic parotit, gripp, skarlatina, difteriya (bogma), kok yotal, meningokokk, sil, qizilcha Ichak infeksiyalari: poliomiyelit, virusli gepatit A, qorin tifi, shigellyoz, olat, salmonellyoz, brusellyoz, botulism Transmissiv infeksiyalari: Qrim-Kongo gemmorogik isitmasi, malyariya, leyshmanioz, virusli ensefalit, vabo Teri infeksiyalari: Dermatoz, quturish, sibir yarasi, qoqshol, gazli gangrena Jinsiy yol bilan yuqadigan infeksiyalar: sozak, zahm, uretra xlamidiozi, uretra mikoplazmozi, qotir kasalligi.

Infeksiya yoqish yollari Infeksiya havo-tomchi, kontakt, transmissiv, fekal-oral, transplasentar, qon orqali yuqadi. Infeksiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari Infeksiya yuqish yollarini bartaraf etish: Maska taqish, qollarni yuvish, himoyalangan jinsiy yaqinlik qilish, va boshqalar, meva va sabzavotlarni yuvish Infeksiya ochogini bartaraf etish: Dezinfeksiya, sterilizasiya, karantin Organizmning infeksiyaga chidamliligini oshirish: Immunizasiya va vaksinizasiya, rasional ovqatlanish, gigiyenaga rioya qilish, sport bilan shugullanish, zararli odatlarni bartaraf etish.

Dezinfeksiya tushunchasi Dezinfeksiya (dez va infeksiya), yuqumsizlantirish yuqumli kasalliklarni qo'zg'atuvchi mikroorganizmlar (bakteriyalar, viruslar va boshqalar)ni yo'q qilish. Keng ma'nodagi Dezinfeksiyaga odam bilan hayvonlar uchun zararli hasharotlarni yo'q qilish dezinfeksiya va zararli kemiruvchilarni yo'q qilish deratizatsiya ham kiradi. Profilaktik, kundalik, yakunlovchi dezinfeksiya bo'ladi. Profilaktik dezinfeksiya yuqumli kasalliklarning oldini olish maqsadida uy anjomlari, idish-tovoklarni, jamoat to'planadigan joylar (bozor, do'kon, bolalar muassasasi, hammom, oshxona, transport va boshqalar)ni, tashlandilarni muntazam ravishda yuqumsizlantirishdir. Suvni yuqumsizlantirish, sutni pasterizatsiya qilish ham profilaktik Dezinfeksiyaga kiradi. Bemor yotgan uyda uzluksiz kundalik dezinfeksiya o'tkaziladi. Yakunlovchi (oxirgi) dezinfeksiya bemor kasalxonaga yotqizilganidan, sog'ayib ketganidan yoki vafot etganidan keyin amalga oshiriladi.

Dezinfeksiyada mexanik, fizik va kimyoviy vositalar qo'llaniladi. Bino va undagi buyumlarni ho'l latta bilan tozalash, kiyim-kechak va ko'rpa-yostiqni qoqish, chang so'rgich bilan tozalash, binoni oklash, bo'yash va boshqa mexanik vositalarga kiradi. Kiyim-kechak va binolar shu yo'l bilan 50-75% mikroblardan xalos bo'ladi. Quritish, quyosh nuri, ultrabinafsha nurlar (simob-kvars lampalari), tashlandilarni yoqib yuborish, idish va boshqa buyumlarni qatronlash, suvga sovun va ishkrr solib qaynatish, qay-noq suv, dezinfeksiya kameralarida va maxsus apparat (avtoklav)da suv

bugʻi va issiq havodan foydalanish fizik vositalar hisoblanadi. Kimyoviy vositalarga kislotalar, ishqorlar, xlorli ohak, xloramin, fenol, krezollar (lizol, naftalizol), formalin, sulema va boshqa moddalar kiradi. Bir qator yuqumli kasalliklarda dezinfeksiya uy sharoitida oʻtkaziladi.

Sterilizatsiya tushunchasi Sterilizatsiya turli moddalar, xirurgiya asboblari, bogʻlov materiallari, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqalarni mikroorganizmlardan butunlay tozalash. Tibbiyotda aseptikaning muhim usullaridan. Sterilizatsiya fizik va kimyoviy usullar yordamida amalga oshiriladi. Fizik usullarga termik (issiqlik) va nur bilan sterilizatsiya qilish kiradi. Kimyoviy sterilizatsiya sovuq sterilizatsiya deb ham yuritiladi, bunda sunʼiy materiallar yoki issiqlikka chidamsiz asboblarni mikroblarni oʻldirish taʼsiriga ega boʻlgan kimyoviy moddalar yordamida sterilizatsiya qilinadi.

Tozalash va dezinfeksiya qilish mavzusi nafaqat korxonalar, balki kundalik hayotning barcha sohalarida qoʻllanilishi kerak boʻlgan faoliyatdir. Ammo tozalash va zararsizlantirish ishlari, ayniqsa, sogʻliqni saqlash va mahsulot sifati nuqtai nazaridan oziq-ovqat ishlab chiqaradigan korxonalar uchun katta ahamiyatga ega. Avvalo, oziq-ovqat mahsulotlari zararli mikroorganizmlarning koʻpayishi uchun juda qulay muhit yaratadi. Oziq-ovqat mahsulotlarining jismoniy, kimyoviy va mikroblar ifloslanishi har doim yuz berishi mumkin va korxonalar sezgir boʻlishi kerak.

Tozalash va dezinfeksiyalash vositalarini tahlil qilishda mahalliy va xorijiy turli xil test usullari qoʻllaniladi, sinovlar, oʻlchovlar, tahlillar va baholashlar amalga oshiriladi va milliy va xalqaro nashr etilgan standartlar asos qilib olinadi. Har bir sarlavha ostida koʻplab testlar va tahlillar mavjud. Masalan, faqat yuvish vositalari Fizik-kimyoviy tahlil doirasida anion faol moddalarni aniqlash, kationli faol moddalarni aniqlash, nionik faol moddalarni aniqlash, faol faol moddalarni aniqlash, natriy karbonat aniqlash, natriy tripolifosfatni aniqlash, EDTA aniqlash, natriy sulfatni aniqlash, silikatni aniqlash, faol kislorodni aniqlash, TAEDni aniqlash, faol xlorini aniqlash, gidroksid oqartirishni aniqlash, optik oqartirishni aniqlash, ph qiymatini aniqlash, zichlikni aniqlash, qovushqoqlikni aniqlash, umumiy kislotalilikni aniqlash, umumiy ishqoriylikni aniqlash, erkin kislota va ishqoriylikni aniqlash, suvda erimaydigan moddalarni aniqlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. С .А .М ухи на, И .И .Т арновская. Атлас по манипуляционной т е х н и к и с е с т р и н с к о г о у х о д а . - А Н М И , 1995.
2. М .А .Fozilbekova, N .А .N urm atova. Hamshiralik ishi nazariyasi asoslari. - « 0 ‘qiluvchi», 2002.
3. Q .S.Inam ov. Hamshiralik ishi asoslari. - T., 2007.
4. T .I.U m arova, M .А .Q ayum ova, M .Q .Ibrohim ova. Hamshiralik ishi. - T., «Zarqalam», 2005.



5. M .I.M u sa ev a , A .Q .B ayjanov. Yuqumli kasalliklar epidemiologiyasi va parazitologiyasi.
6. M .F .Z iyayeva. Terapiya. - T., «Ilm Ziyο», 2004.
7. S .O .H ayd arov, Sh.X .E rm atov. Ichki kasalliklar. — T., «Abu Ali Ibn Sino», 2002.